

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# No5

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafrō'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdıyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR .....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	
KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI .....	144
<b>Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich</b>	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI.....	149
<b>Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna</b>	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH .....	154
<b>Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna</b>	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI .....	159
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	166
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР .....	171
<b>Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы</b>	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI .....	177
<b>O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li</b>	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	182
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI.....	189
<b>Ro‘zmetov Mansur</b>	
O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	193
<b>Shaydulova Marjona Alisher qizi</b>	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	198
<b>Rizoyev Farrux Hikmatilloevich</b>	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	203
<b>Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	208
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ .....	218
<b>Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович</b> ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ .....	224
<b>Тожалиев Шохрух Талип ўғли</b> GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING .....	229
<b>Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna</b> O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH .....	234
<b>Azlarova Aziza Axrorovna</b> AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI .....	241
<b>Marufxanov Davron Hasanovich</b> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI .....	249
<b>Isakjanova Saboxat Muhamedovna</b> MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI .....	256
<b>Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna</b> DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI .....	261
<b>Anvar Deberdiyev</b> RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI .....	265
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi</b> TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....	271
<b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b> IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV .....	276
<b>Tadjiev Bexzod Umidjanovich</b> OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI .....	283
<b>Tuxliyev Bozor Karimovich</b> TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	286
<b>Abirova Nargizabonu</b> TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	291
<b>Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna</b> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI .....	296
<b>Sharipova Shahlo Istamovna</b> METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI .....	301
<b>Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li</b> SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	305
<b>Mirzakulova Risolat Musurmankulovna</b> O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI .....	310
<b>Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra</b>	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	316
<b>Primova Nigora Ikrom qizi</b>	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR .....	324
<b>Raxmankulov Sherzod Shokirovich</b>	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	330
<b>Aripov Ulug'bek Bahodirovich</b>	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	334
<b>Xakimov Akbar Anvarovich</b>	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	337
<b>Majidova Maxliyo A'zam qizi</b>	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	347
<b>Komilova Nodira Abdirahmon qizi</b>	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	355
<b>Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova</b>	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	360
<b>Sanemkhan Abdullaeva</b>	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	368
<b>Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li</b>	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH .....	372
<b>Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin</b>	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	379
<b>Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	384
<b>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	390
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI .....	396
<b>Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna</b>	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	400
<b>Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi</b>	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI .....	404
<b>Karimova Shaxnoza O'ktamovna</b>	

# XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHIIYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI



**Karimova Shaxnoza O'ktamovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
To'rtko'l fakulteti assistent o'qituvchisi

E-mail: [shaxnoz778933@gmail.com](mailto:shaxnoz778933@gmail.com)

ORCID: 0009-0009-7448-2632

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyati va transport infratuzilmasining joriy holati statistik tahlil hamda SWOT/TOWS metodologiyasi asosida o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillarda viloyatda transport xizmatlari hajmi 1 568,3 mlrd so'mdan 4 164,3 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,66 baravarga oshgani aniqlangan. Tarmoq tarkibida avtomobil transportining yuqori ulushi (93,6 foiz) hamda transport xizmatlarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganligi viloyat transport tizimining asosiy zaif jihatlari sifatida baholangan. Muallif tomonidan viloyatdagi 14 ta hududiy birlik transport intensivligi darajasiga ko'ra uch guruhga ajratilgan hamda "mutadil hujum" strategiyasi taklif etilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi mintaqaviy transport tizimini SWOT–TOWS strategik kombinatsiyalari asosida kompleks tahlil qilish va hududlarni transport intensivligi bo'yicha tipologik guruhlash usulini qo'llash bilan izohlanadi. Olingan natijalar mintaqaviy transport siyosatini takomillashtirish hamda transport infratuzilmasini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm viloyati, transport infratuzilmasi, iqtisodiy salohiyat, SWOT-tahlil, TOWS-matritsa, multimodal logistika, hududiy rivojlanish, transport xizmatlari.

**Abstract.** This article examines the economic potential of the Khorezm region and the current state of its transport infrastructure based on statistical analysis and the SWOT/TOWS methodology. The study found that during 2020–2024, the volume of transport services in the region increased from 1,568.3 billion soums to 4,164.3 billion soums, representing an increase of nearly 2.66 times. The high dependence on road transport (93.6%) and the uneven territorial distribution of transport services were identified as the main weaknesses of the regional transport system. The author classified the 14 territorial units of the region into three groups according to transport intensity and proposed a "moderate offensive" strategy. The scientific novelty of the research lies in the integrated application of SWOT–TOWS strategic combinations and the typological grouping of districts based on transport intensity. The obtained results have practical significance for improving regional transport policy and developing transport infrastructure.

**Keywords:** Khorezm region, transport infrastructure, economic potential, SWOT analysis, TOWS matrix, multimodal logistics, regional development, transport services.

**Аннотация.** В данной статье на основе статистического анализа и методологии SWOT/TOWS исследованы экономический потенциал Хорезмской области и текущее состояние её транспортной инфраструктуры. Установлено, что в 2020–2024 годах объём транспортных услуг в регионе увеличился с 1 568,3 млрд сумов до 4 164,3 млрд сумов, то есть почти в 2,66 раза. Высокая зависимость от автомобильного транспорта (93,6%) и территориальная неравномерность распределения транспортных услуг определены как основные слабые стороны транспортной системы региона. Автором 14 территориальных единиц области сгруппированы по уровню транспортной интенсивности в три группы, а также предложена стратегия «умеренного наступления». Научная новизна исследования заключается в комплексном применении SWOT–TOWS стратегических комбинаций и типологической группировки районов по транспортной интенсивности. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования региональной транспортной политики и развития транспортной инфраструктуры.

**Ключевые слова:** Хорезмская область, транспортная инфраструктура, экономический потенциал, SWOT-анализ, матрица TOWS, мультимодальная логистика, территориальное развитие, транспортные услуги.



## KIRISH

Hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va aholi turmush sifatini oshirishda transport infratuzilmasi muhim o‘rin tutadi. Ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi yuk oqimlarining intensivlashuviga, demografik va turistik harakatchanlikning ortishi esa yo‘lovchi tashish hajmlarining ko‘payishiga olib keladi. Shu bois mintaqaning iqtisodiy salohiyatini baholashda transport tarmog‘ining holati, sifati va rivojlanish imkoniyatlari asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorazm viloyati o‘zining qulay geografik joylashuvi — Beyneu–Buxoro xalqaro avtomobil yo‘nalishi hamda Toshkent–Urganch–Nukus temir yo‘l magistralining tutashgan hududida joylashgani, shuningdek, Xiva shahrining YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy turizm markazi ekani hamda Turkmaniston bilan chegaradoshligi sababli mintaqa transport tizimining strategik tugunlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.04.2022-yildagi “2022–2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 154-sonli qarori[1] bilan viloyat transport infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan avtomobil yo‘llari, ko‘priklar, jamoat transporti yo‘nalishlari, avtobus parklarini modernizatsiya qilish va transport-logistika markazlarini shakllantirish bo‘yicha ustuvor maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, viloyatda transport xizmatlari hajmi izchil o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, tarmoq tarkibida ayrim tarkibiy nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, avtomobil transportiga yuqori darajadagi bog‘liqlik, transport xizmatlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi hamda ekologik toza transport vositalari ulushining nisbatan pastligi transport tizimini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot obyekti — Xorazm viloyati transport infratuzilmasi va transport xizmatlari bozori hisoblanadi. Tadqiqot predmeti esa viloyat transport tizimining tarkibiy xususiyatlari, rivojlanish tendensiyalari hamda hududiy iqtisodiyot bilan o‘zaro bog‘liqligidan iborat.

Tadqiqotning maqsadi — Xorazm viloyati transport infratuzilmasining joriy holatini kompleks baholash, mavjud imkoniyatlar va muammolarni aniqlash hamda transport tizimini samarali rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Transport infratuzilmasining mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘siri masalalari ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. D. Banister va Y. Berechman [2] transport investitsiyalarining iqtisodiy o‘sishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda bilvosita ta‘sirini ilmiy jihatdan asoslab bergan bo‘lsa, J.-P. Rodrigue [3] xalqaro logistika koridorlarini tahlil qilishda multimodal yondashuvning muhimligini ko‘rsatgan. R. Vickerman [4] esa transport infratuzilmasining hududiy nomutanosibliklarni kamaytirishdagi rolini empirik tahlillar asosida baholagan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida B.B. Sharipova [5] Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko‘rsatishning amaldagi holatini tahlil qilib, 2024-yilda viloyatda avtomobil transporti xizmatlari hajmi 4 164,3 mlrd so‘mni, yo‘lovchi tashish hajmi esa 478,3 mln kishini tashkil etganini qayd etgan. N.U. Ravshanova [6] O‘zbekistonning 9 ta xalqaro temir yo‘l transport yo‘lagidan foydalanayotganini hamda Xorazm yo‘nalishidagi strategik loyihalar — Buxoro–Urganch–Xiva temir yo‘l liniyasini elektrlashtirish (452 km) va Shovot–Qorauzak yo‘nalishida Amudaryo ustidan temir yo‘l ko‘prigini qurish (82 km) loyihalarini tahlil qilgan.

A.B. Raximov [7] viloyatda 4 100 km avtomobil yo‘llari va 400 km temir yo‘l tarmog‘i mavjudligini ta‘kidlab, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari sifatida raqamli transformatsiya, multimodal integratsiya, logistika tizimini takomillashtirish hamda kadrlar salohiyatini rivojlantirish omillarini ajratib ko‘rsatgan. X.Y. Davletov [8] esa Xorazm viloyatini mintaqaviy logistika markaziga aylantirish istiqbollari iqtisodiy-geografik yondashuv asosida asoslab bergan.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi aynan transport infratuzilmasini kompleks strategik tahlil qilish, SWOT–TOWS metodologiyasini qo‘llash va hududlarni transport intensivligi bo‘yicha guruhlash orqali mintaqaviy transport tizimini rivojlantirishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuv va tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Birinchiidan, statistik tahlil usuli O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligining rasmiy ma'lumotlari (stat.uz) asosida 2020–2024-yillar davomida transport xizmatlari hajmi, tarmoq tarkibi hamda hududiy taqsimot dinamikasini baholashda qo'llanildi. Ushbu metod orqali viloyatda transport xizmatlari rivojlanishining asosiy tendensiyalari aniqlashtirildi.

Ikkinchiidan, qiyosiy taqqoslash usuli viloyat ko'rsatkichlarini respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirish, transport infratuzilmasidagi tarkibiy farqlar va hududiy xususiyatlarni aniqlash maqsadida tatbiq etildi.

Uchinchiidan, SWOT-tahlil metodidan foydalanilib, transport tizimining kuchli tomonlari (Strengths), zaif jihatlari (Weaknesses), imkoniyatlari (Opportunities) va tahdidlari (Threats) tizimli ravishda matritsa shaklida tasniflandi. Mazkur yondashuv transport infratuzilmasining ichki va tashqi omillar ta'siridagi holatini kompleks baholash imkonini berdi.

To'rtinchiidan, TOWS-matritsa metodologiyasi asosida SWOT tahlili natijalari integratsiyalashtirilib, SO, WO, ST va WT strategik kombinatsiyalari ishlab chiqildi. Ushbu metod viloyat transport tizimini rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishlarini aniqlashga xizmat qildi.

Beshinchiidan, tipologik guruhlash usuli orqali viloyatning hududiy birliklari transport intensivligi darajasiga ko'ra shartli guruhlarga ajratildi. Ushbu yondashuv hududlar o'rtasidagi transport xizmatlari rivojlanishidagi tafovutlarni aniqlash va ularni iqtisodiy-geografik jihatdan baholash imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi Xorazm viloyati transport infratuzilmasining joriy holatini har tomonlama tahlil qilish hamda uni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yil yanvar–dekabr oylarida Xorazm viloyatida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 28 262,0 mlrd so'mni tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 12,0 foizga oshgan. Mazkur hajm tarkibida transport xizmatlari 4 164,3 mlrd so'mni yoki jami xizmatlarning 14,7 foizini tashkil qilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi o'sish sur'ati 111,0 foizga teng bo'lgan [8]. Bu holat transport sohasining viloyat iqtisodiyotidagi muhim va istiqbolli tarmoqlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

2020–2024-yillar dinamikasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Xorazm viloyatida transport xizmatlari hajmi 1 568,3 mlrd so'mdan 4 164,3 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,66 baravarga oshgan. Muallif hisob-kitoblariga ko'ra, ushbu davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 27,6 foizni tashkil etgan. Mazkur yuqori o'sish ko'rsatkichi, bir tomondan, 2020-yildagi pandemiya davridan keyingi iqtisodiy tiklanish jarayonlari, ikkinchi tomondan esa avtomobil transporti parkini modernizatsiya qilish, yo'l infratuzilmasini kengaytirish hamda kichik biznes subyektlarining transport xizmatlari bozoriga faol kirib kelishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, 2023–2024-yillarda viloyatda logistika va saqlash markazlarini tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan investitsiya loyihalari ham transport xizmatlari hajmining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu esa transport infratuzilmasi rivojlanishining hududiy iqtisodiy faollik va xizmatlar sektori bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi.

Tarmoq tarkibi tahlili natijasida ayrim tarkibiy nomutanosibliklar ham aniqlandi. Xususan, transport xizmatlari tarkibida avtomobil transportining yuqori ulushga egaligi tizimning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu munosabat bilan 1-jadvalda Xorazm viloyati va respublika transport tarmog'i tarkibining qiyosiy tahlili keltiriladi (1-jadval).

### 1-jadval

Xorazm viloyati va O'zbekiston Respublikasi transport xizmatlari tarmoq tarkibining qiyosiy tahlili (2024-yil, %)<sup>1</sup>

Transport turi	Xorazm viloyati	O'zbekiston Respublikasi
Avtomobil transporti	93,6	50,9
Havo transporti	—	15,6
Yordamchi transport faoliyati	—	14,8
Quvur yo'li transporti	—	10,5
Temir yo'l transporti	—	8,2
Boshqa turlar (jami)	6,4	—
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>

1 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Xorazm viloyatida avtomobil transportining ulushi respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 42,7 foiz punktga yuqori shakllangan. Mazkur tafovut viloyatda temir yo'l, havo va quvur transporti tarmoqlarining nisbatan cheklangan rivojlanganligi hamda mintaqqa iqtisodiyotining avtomobil transporti xizmatlariga yuqori darajada bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Natijada viloyat iqtisodiyoti yoqilg'i narxlaridagi o'zgarishlar, avtomobil yo'llari yuklamasining ortishi, ekologik bosim va logistika xarajatlarining oshishi kabi tashqi omillarga nisbatan sezgir holatda qolmoqda.

Shu bilan birga, transport tizimining avtomobil transportiga yuqori darajada tayanishi yuk va yo'lovchi tashish samaradorligini ta'minlashda qisqa muddatda qulaylik yaratsa-da, uzoq muddatli istiqbolda multimodal transport tizimini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, temir yo'l logistikasini kengaytirish, ekologik barqaror transport vositalarini joriy etish hamda transport tarmoqlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish viloyat iqtisodiyotining transport xavfsizligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Viloyat transport faoliyatining miqdoriy ko'rsatkichlari uning iqtisodiyot uchun xizmat ko'lamini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Shu munosabat bilan 2-jadvalda 2025-yil bo'yicha transport sohasining asosiy hajm ko'rsatkichlari keltiriladi (2-jadval).

## 2-jadval

### Xorazm viloyati transport faoliyatining asosiy hajm ko'rsatkichlari (2025-yil)<sup>2</sup>

Ko'rsatkich	Hajmi	O'sish sur'ati, %
Tashilgan yuk, mln tonna	41,2	103,8
Yuk aylanmasi, mln tonna-km	1 303,3	106,2
Tashilgan yo'lovchi, mln kishi	506,4	103,1
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'l-km	9 239,9	102,8

Yuk aylanmasi hajmining yuk tashish hajmiga nisbatan tezroq o'sayotgani (106,2 foizga qarshi 103,8 foiz) viloyat hududida tashish masofalarining uzayganini, ya'ni iqtisodiy aloqalar geografiasining kengayib borayotganini anglatadi. Bu holat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish subyektlari o'rtasidagi hududiy integratsiyaning kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Mintaqa transport tizimining joriy holatini kompleks baholash maqsadida muallif tomonidan SWOT-tahlil amalga oshirildi. Mazkur tahlil viloyat transport tizimining ichki imkoniyatlari — kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tashqi muhit omillari — imkoniyatlar va tahdidlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan (3-jadval).

## 3-jadval

### Xorazm viloyati transport infratuzilmasining SWOT-tahlili<sup>3</sup>

S — Kuchli tomonlar	W — Zaif tomonlar
S1. Qulay geografik joylashuv (xalqaro tranzit koridorlari). S2. Transport xizmatlari hajmining barqaror o'sishi (5 yilda 2,66 baravar). S3. Xizmatlar sohasidagi katta ulush (14,7%). S4. Avtomobil transporti tarmog'ining yetuk rivojlanganligi (93,6%). S5. Urganch xalqaro aeroportining mavjudligi. S6. Xivaning YuNESKO obyekti sifatidagi turistik salohiyati.	W1. Avtomobil transportiga 93,6% bog'liqlik. W2. Temir yo'l, havo va quvur transport ulushining cheklanganligi. W3. Park amortizatsiyasining yuqoriligi. W4. Hududiy notekislik (yo'lovchi oqimining 56% atigi 5 hududda). W5. Logistika va intermodal terminallar tarmog'ining cheklanganligi. W6. Ekologik toza transport vositalari ulushining pastligi.
O — Imkoniyatlar	T — Tahdidlar
O1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasidagi davlat investitsiyalari. O2. "Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa" tranzit koridorining faollashuvi. O3. Xalqaro turizmning rivojlanishi. O4. Raqamli transport platformalarini joriy etish. O5. Yashil transport bozorining shakllanishi. O6. Davlat-xususiy sherikligi mexanizmlari.	T1. Yoqilg'i narxlarining tebranishi. T2. Yagona transport turiga bog'liqlikning tizim zaifligini oshirishi. T3. Valyuta kursi va xorijiy ehtiyot qismlarga bog'liqlik. T4. Iqlim o'zgarishi va Orolbo'yi ekologik holati. T5. Yo'l-transport hodisalari xavfining ortishi. T6. Malakali kadrlar (haydovchilar, logistlar) yetishmasligi.

SWOT-tahlilning analitik ahamiyatini yanada chuqurlashtirish maqsadida TOWS-matritsa metodologiyasi asosida to'rtta strategik kombinatsiya ishlab chiqildi. Mazkur kombinatsiyalar viloyat transport tizimining kuchli va zaif tomonlarini tashqi imkoniyatlar hamda mavjud rivojlanish omillari bilan o'zaro uyg'unlashtirish orqali istiqbolli strategik yo'nalishlarni shakllantirishga xizmat qiladi (4-jadval).

2 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi

## 4-jadval

 Xorazm viloyati transport tizimi uchun TOWS strategik kombinatsiyalari<sup>4</sup>

SO — hujum strategiyasi (S × O)	WO — qayta yo'naltirish (W × O)
Geografik joylashuv (S1) va xalqaro tranzit koridorlari (O2) imkoniyatidan foydalanib, xalqaro logistika hubini shakllantirish; turistik salohiyat (S6) va xalqaro turizmning o'sishi (O3) asosida ixtisoslashgan turistik transport xizmatlarini rivojlantirish.	Tarkibiy nomutanosiblik (W1) muammosini multimodal markazlar (O6) barpo etish orqali kamaytirish; park amortizatsiyasi (W3) muammosini yashil transport bozori (O5) imkoniyatlari hisobiga hal etish; hududiy notekislik (W4)ni raqamli platformalar (O4) joriy etish orqali pasaytirish.
ST — himoya strategiyasi (S × T)	WT — minimallashtirish (W × T)
Transport xizmatlari hajmining barqaror o'sishi (S2) va aeroport mavjudligi (S5) hisobiga yoqilg'i narxlari tebranishi (T1, T2)dan diversifikatsiya orqali himoyalani; xizmatlar sohasidagi yetuk pozitsiya (S3)ni saqlash uchun professional kadrlar tayyorlash dasturlari (T6).	Avtomobil transportiga bog'liqlik (W1) va yoqilg'i tahdidini (T1) bartaraf etish uchun temir yo'l va elektr transport ulushini bosqichma-bosqich oshirish; logistika cheklanganligi (W5) va raqobatda orqada qolish xavfini (T6) davlat-xususiy sherikligi orqali yengish.

Tahlil natijalariga ko'ra, viloyat uchun eng maqbul strategik yo'nalish SO va WO kombinatsiyalarini uyg'unlashtirgan "mutadilona hujum" strategiyasi ekanligi aniqlandi. Mazkur strategiya, bir tomondan, mavjud kuchli tomonlardan foydalanib tashqi imkoniyatlarni samarali o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan esa mavjud zaif jihatlarni aynan shu imkoniyatlar orqali bosqichma-bosqich kamaytirishni nazarda tutadi. Xorazm viloyatining ichki transport salohiyatini yanada aniqroq baholash maqsadida tuman va shaharlar kesimida tashish hajmlari tahlil qilindi hamda viloyatdagi 14 ta hududiy birlik transport intensivligi darajasiga ko'ra shartli ravishda uch guruhga ajratildi. Mualliflik asosidagi ushbu guruhlash natijalari 1-sxemada keltirilgan (5-jadval).

## 5-jadval

 Xorazm viloyati hududlarining transport intensivligi bo'yicha mualliflik guruhlashi<sup>5</sup>

I guruh (yuqori intensivlik)	II guruh (o'rta intensivlik)	III guruh (past intensivlik)
Urganch shahri (19,9%); Urganch tumani (8,6%); Xonqa tumani (9,3%); Hazorasp tumani (9,4%); Gurlan tumani (9,0%). Jami: 56,2%	Xiva tumani (8,5%); Shovot tumani (8,3%); Qo'shko'pir tumani (6,4%); Yangiariq tumani (6,1%); Bog'ot tumani (4,1%). Jami: 33,4%	Yangibozor tumani (4,0%); Xiva shahri (3,3%); Tuproqqal'a tumani (3,0%). Jami: 10,4%
Yo'nalish: marshrut tarmog'ini optimallashtirish, intermodal markazlar.	Yo'nalish: park yangilash, raqamli xizmatlar, marshrut zichligi.	Yo'nalish: yo'l infratuzilmasi tubdan yangilash, qo'shimcha marshrut.

Mazkur guruhlash transport xizmatlaridan samarali foydalanish strategiyasini hududiy jihatdan differensial yondashuv asosida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Periferik hududlarda yo'lovchi oqimining nisbatan pastligi faqat aholi sonining kamligi bilan emas, balki yo'l infratuzilmasi sifati, transport qatnovi qulayligi va marshrut tarmog'i zichligining yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ham izohlanadi. Tadqiqot doirasida muallif tomonidan Xorazm viloyati transport tizimining funksional tarkibiy sxemasi ham ishlab chiqildi (2-sxema). Mazkur sxema viloyat transport tizimining to'rtta asosiy tarkibiy elementdan iborat ekanini hamda ular o'rtasidagi funksional va institutsional o'zaro bog'liqliklarni umumlashtirilgan holda aks ettiradi (6-jadval).

## 6-jadval

 Xorazm viloyati transport tizimining funksional tarkibi<sup>6</sup>

1. MAGISTRAL TARMOQ (Toshkent–Urganch–Nukus temir yo'li, Beyneu–Buxoro avtomobil yo'nalishi, Urganch xalqaro aeroporti)	2. HUDUDIY TARMOQ (viloyat ichki avtomobil yo'llari, tumanlararo marshrutlar, jamoat transporti yo'nalishlari)
3. KAPILLYAR TARMOQ (qishloq joylari, mahalla darajasidagi yo'llar, taksi va kichik biznes transporti) — kuchsiz bo'g'in	4. YORDAMCHI INFRATUZILMA (logistika markazlari, yoqilg'i quyish shaxobchalari, ta'mirlash bazalari, raqamli platformalar) — kuchsiz bo'g'in

Mazkur jadvalning metodologik ahamiyati shundaki, unda transport infratuzilmasi alohida obyektlar

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi

6 Muallif ishlanmasi



yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro funksional jihatdan bog'langan ierarxik tizim sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv transport tizimidagi nisbatan sust rivojlangan yoki qo'shimcha takomillashtirishni talab qiluvchi bo'g'inlarni aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, Xorazm viloyati transport tizimida ayniqsa kapillyar tarmoq (3-element) hamda yordamchi infratuzilma (4-element) komponentlari nisbatan pastroq rivojlanganligi aniqlandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, Xorazm viloyati transport tarmog'i mintaqa xizmatlar sohasining eng faol va barqaror rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi besh yil davomida transport xizmatlari hajmi 2,66 baravar oshib, 2024-yilda viloyat bozor xizmatlari umumiy hajmining 14,7 foizini tashkil etdi. Bu transport infratuzilmasining hududiy iqtisodiy rivojlanish, savdo-logistika aloqalari va xizmatlar bozorida muhim o'rnini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, SWOT-TOWS metodologiyasi asosida amalga oshirilgan tahlil natijalari Xorazm viloyati uchun "mutadilona hujum" strategiyasi (SO + WO kombinatsiyalari) eng maqbul rivojlanish modeli ekanligini ko'rsatdi. Ushbu strategiya mavjud kuchli tomonlardan foydalanish orqali tashqi imkoniyatlarni samarali o'zlashtirish hamda mavjud zaif jihatlarni bosqichma-bosqich kamaytirishga qaratilgan.

Olingan natijalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Transport tarmog'ini diversifikatsiya qilish. Viloyatda temir yo'l yo'lovchi qatnovi va intermodal logistika ulushini bosqichma-bosqich oshirish zarur. Shu maqsadda Buxoro-Urganch-Xiva temir yo'l yo'nalishini elektrlashtirish loyihasini jadallashtirish hamda Shovot-Qorauzak yo'nalishida Amudaryo ko'prigini qurish loyihasini ustuvor infratuzilmaviy yo'nalish sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Multimodal logistika markazlarini rivojlantirish. Urganch shahri va Hazorasp tumanida xalqaro tranzit talablariga mos zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Ushbu loyihalarda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanish samaradorlikni oshiradi.

Raqamli transport platformalarini joriy etish. Yo'lovchi va yuk tashish geografiyasini real vaqt rejimida boshqarish imkonini beruvchi GPS-monitoring, elektron chiptalar va onlayn buyurtma tizimlarini hududiy ehtiyojlardan kelib chiqib bosqichma-bosqich joriy etish zarur.

Yashil transport ulushini kengaytirish. Viloyat shahar va tumanlarida elektr avtobuslar va ekologik toza transport vositalari parkini shakllantirish, shuningdek xalqaro grantlar va "yashil moliya" instrumentlaridan foydalanishni kengaytirish tavsiya etiladi.

Hududiy differensial transport siyosatini shakllantirish. Periferik hududlarda yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va qo'shimcha transport yo'nalishlarini tashkil etish, o'rta intensivlikdagi hududlarda transport vositalari parkini yangilash, yuqori intensivlikdagi hududlarda esa intermodal transport terminallarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Kadrlar salohiyatini rivojlantirish. Viloyatdagi oliy va professional ta'lim muassasalarida transport-logistika yo'nalishlari bo'yicha amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini kengaytirish, malakali logistika mutaxassislari va transport menejerlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Turistik transport xizmatlarini rivojlantirish. Xivaning UNESCO merosi obyektlari qatoriga kiritilgan viloyatda turistik transport xizmatlarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bois ixtisoslashtirilgan turistik avtobuslar, multimodal turistik chiptalar tizimi va zamonaviy turistik logistika xizmatlarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi Xorazm viloyati transport infratuzilmasining barqaror, ekologik xavfsiz va xalqaro standartlarga mos tizim sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, transport-logistika salohiyatining oshishi mintaqaning iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini yaxshilash hamda aholi turmush sifatini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalaridan boshqa hududlarda ham mahalliy xususiyatlarni inobatga olgan holda foydalanish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 04.04.2022-yildagi "2022–2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 154-sonli qarori, <https://lex.uz/uz/docs/-5939831>
2. Banister D., Berechman Y. *Transport Investment and Economic Development*. – London: Routledge, 2020. – 384 p.
3. Rodrigue J.-P. *The Geography of Transport Systems*. 6th ed. – New York: Routledge, 2024. – 456 p.
4. Vickerman R. Can high-speed rail have a transformative effect on the economy? // *Transport Policy*. – 2018. – Vol. 62. – P. 31–37.



5. Sharipova B.B. Xorazm viloyatida transport xizmatlari ko'rsatishning amaldagi holati tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // *"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2025. – № 9. – B. 668–677.
6. Ravshanova N.U. Transport-logistika infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotiga ta'siri // *Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali*. – 2025. – Vol. 3, Issue 7. – B. 694–697.
7. Raximov A.B. Xorazm viloyatida transport infratuzilmasining hozirgi holati va uni modernizatsiya qilish istiqbollari // *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali*. – 2025. – T. 5, № 1. – B. 265–269.
8. Davletov X.Y. Xorazm viloyatida transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati // *Ilm-fan xabarnomasi*. – 2026. – T. 12, № 2. – B. 1215–1216.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti. – URL: <https://stat.uz> (murojaat sanasi: 02.05.2026).
10. Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. *2024–2025-yillar transport faoliyati hisobotlari*. – Urganch, 2026.
11. Litman T. *Evaluating Public Transportation Health Benefits*. – Victoria Transport Policy Institute, 2023. – 78 p.
12. OECD. *Transport Outlook 2024: Towards Climate Neutrality*. – Paris: OECD Publishing, 2024. – 292 p.
13. Akhtar N., Syakir Ishak M.I., Bhawani S.A., Umar K. Various natural and anthropogenic factors responsible for water quality degradation: A review // *Water*. – 2021. – Vol. 13, № 19. – P. 2660–2670.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)